

“ONA TILI FANIDA MATNLARNING AHAMIYATI”

Namangan viloyati Pop tumani 6- maktab
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Boybabayeva Nigora

Annotatsiya: Ona tili darslarida matnlar ustida ishlashning o'zaro kommunikativ aloqalari yuzasidan so'z yuritilgan bo'lib, maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarining matnlar ustida ishlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada maktab darsliklari tarkibida keltiriladigan mashqlar, topshiriqlar matnlari yuzasidan ilmiylik, xususiylik, ommaviylik kabi prinsiplarga asoslangan matnlar bilan ishlash yuzasidan fikrmulohazalar keltirilgan. Maqola matnlarning turi, katta va kichikligiga ko'ra shakl va hajmi jihatidan o'zaro munosabatni bildirishga ko'ra ham izohlangan.

Kalit so'zlar: Mikro matn, makro matn, kirish so'zkar, uslubiy bo'yoqdor so'zlar.

Ona tili bu har bir millatning iftixori, yurtning borligini bildirib turuvchi eng asosiy manbasi sanaladi. Til bu - shu millatning tafakkur manbai, har bir yurt fuqorosining g'ururi, yurtdagi ma'naviy boyliklarning ko'zgusi hisoblanadi. Abdulla Avloniy bobomiz aytganlaridek : “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”.

O'sib kelayotgan yangi avlod vakillarining asosiy vazifalaridan biri bu tarixdagi bilimlarni o'rganish va ularni rivojlantirishdir. Bugungi kundagi taraqqiyot va jamiyat rivojini busiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kelajak avlodga bu tarixni yetkazishning yagona yo'li esa ta'lim sohasidagi rivojlanishni kuchaytirish va tinmay oshirish orqali yetuk kadrlar tayyorlash va bilim bilan qurollantirish.

Yangilanish yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan O'zbekistonning bugungi bosqichida – milliylik kasb etgan, yuksalish talablaridan kelib chiqqan holda, hozirda ona tilimizga bo'lgan e'tibor va uning nufuzi yanada oshib bormoqda. Ona tilimizning asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universitetining tashkil qilinganligi bizga tilimizni tarixini yanada chuqurroq o'rganishga, unda yaratilgan ilmiy asarlarni har tomonlama rivojlantirishga va ona tilimizdan foydalanuvchilarning doirasini kengaytirishga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'rta ta'limning majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va

tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda ona tili darslarini yaxshi tashkil etish va talabalar, o'quvchi yoshlarning mazmunli bilim olishlariga yaxshiroitlar yaratish bu keng imkoniyatlar birga bilim salohiyatini oshirishga ham imkon yaratib beruvchi vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ona tili darslarida o'quvchilarning matnlar ustida ishlash salohiyatini oshirishda turli xil pedagogik ko'nikmalar va ta'lim ishini tashkil etishga muvofiqlashtirilgan uslublardan foydalanish ham katta rol o'ynaydi. Haqiqatdan ham, matnlarning turlariga ko'ra mikro, makon matnlari ustida ishlash va ularning hajm shakl munosabatlarida kiriladigan fikrlar va ifoda xususiyatlariga ko'ra anglashiladi.

“Ma'lumki, mamlakatimizdagi 5-sinf o'quvchilari ham 2021-yildagi PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida ilk marotaba ishtirok etdi. Bunda respublika bo'yicha jami 180 ta maktab tanlab olindi va 5948 ta o'quvchi qatnashdi. PIRLS (ingl. “Progress in International Reading Literacy Study”, ya'ni matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) har 5 yilda o'tkaziladigan dastur bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishi baholanadi va bu jarayonda “badiiy tajriba orttirish” va “axborotni olish va undan foydalanish”ga alohida e'tibor qaratiladi. PIRLS xalqaro baholash dasturida ishtirok etish ta'lim sifatini oshirish bilan birga o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi”

Matnlar ustida ishlashning ijobiy va salbiy xususiyatlaridan so'z yuritganda ijobiylik nuqtai nazardan o'quvchilar o'z fikrlarini erkin, individual tarzda yondashuv asosidabayon etishlari mumkin ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ona tili darslarida matnlar ustida ishlashning ahamiyati quyidagilarda namoyon boladi:

- so'zlarning o'zaro boglanishdagi funksional vazifasi;
- so'z qo'llash bilan bog'liq ma'naviy jihatlarining oshishi;
- imloviy savodxonlik va so'z xususida;
- adabiy-badiiy so'zlashuv uslubdan foydalanish;
- ilmiy uslub yoki badiiy uslub keltirib chiqaruvchi vositalardan foydalanish.

Shuningdek, bugun respublikamizning har bir oliy ta'lim muassasalari va maktablar shakllarida ona tili darslarini tashkil etish va ularning sifatini oshirishda matnlarning ahamiyati katta. Matnlar ustida ishlash o'quvchilarga pedagogik qobiliyatning shakllanishi va ushbu qobiliyatning kelgusida ta'lim ishini tashkil etishda qoidasi bilan bog'liqdir. “Sarlavha qanchalik qisqa, ixcham va sermazmun bo'lsa, shuncha yaxshi. Chunki sarlavha qanchalik qisqa, aniq va mazmundor bo'lsa, ilmiy tadqiqotning shunchalik uqilgan va yetilganligiga ishora qilib turadi. Aksincha uzundan uzoq sarlavha noqulay va ishning g'o'rliigi nishonalaridan biridir. Sarlavhada ortiqcha so'zlar bo'lmasligi kerak”.

Keng jamoatchilik va atrofdagi odamlarning o‘zaro munosabati kommunikativ aloqa so‘zlashuv uslubi asosida ma’lumotlar va ularning tarkibida keltiriladigan har bir so‘zning o‘zaro kommunikativ xususiyatlari kelib chiqqan matnlarni izohlash mumkin. Matnlar ustida ishlash xususida tarjimashunoslik bo‘limining ham ahamiyati katta bo‘lib, chet eldan tarjima qilinuvchi asarlar mashqlar mashg‘ulotlar fiziologik yoki psixologik treninglarning matnlarni tarjima qilish va shu kabilardan matnlar ustida ishlash ham katta yordam beradi. Bunda, kitobxondan anchayin tushunib o‘qish uchun mas’uliyat talab etiladi, tarjimondan esa ikki karra mas’uliyat talab etiladi, chunki, o‘quv-uslubiy ommabop tarzan yaratilishi matnlar va kitoblar tarkibida kelishiga ko‘ra o‘quvchiga matnlarning tushunarli tushunarli bo‘lishi hamda ilmiy-ommabot tarzda qo‘llanishi badiiy uslubda ham qo‘llanishiga ko‘ra ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, matnlar ustida ishlash va o‘quvchilarning individual tarzda rivojlanishiga imkoniyat ish ilmiy jihatdan ham katta bir manba bo‘lib, matnlarni chuqur o‘rganish, taqdim etishga olib keladi. Maktab dasturlari tarkibida keltiriladigan mashqlar topshiriqlar va ularning to‘ldirilgan matnlari va ularni izohlash izohlovchi sozlar bilan birgalikda berilishi bu ham samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuni aytish mumkinki, Matnlar erkin yoki ommaviy uslub tomonidan ishlatilishiga ko‘ra o‘quvchilar e‘tiborini tortishi, atrof kishilik jamiyatdagilarning e‘tiborini tortadigan birgalikda uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan bo‘lishi lozim. Ona tilio‘qitish darslarida ana shu jihatlarga qat’iy amal qilinishi, shuningdek, va bo‘yoqdor so‘zlar uslubiy xoslanish kabilarga e‘tibor qilishni katta bir ahamiyat kasb etishini unutmazligi lozim. Shuningdek, matn tuzishda yoki matnlarni tahlil qilishda kirish so‘zlar va ularning izohlovchi ma’nolari bilan ahamiyatli tasdiqlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Nurmonov. A. Sobirov D va boshqalar. Ona tili. Umumta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Tasvir — nashriyot uyi. Toshkent: 2017.
2. Muhitdinova H. Ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta‘minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.
3. Sattorova N. O‘quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish. P.f.n. diss. – Toshkent: 1995. 4. B. G‘ulomov, B. Qobulova Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Toshkent. 1995.
4. N. Mahmudov Ta‘lim bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitish mazmunini yangilash muammolari. Qarshi. 1993.
5. R. Safarova Ona tili ta‘limining yangilangan mazmuni va uning didaktika asoslari. Toshkent. 1995.